

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
DEKABR  
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
16-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-16**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-16**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Бахриддинова Д.А.</b> ТЕХНОЛОГИЯ ПРИДАНИЯ ФОРМЫ В ОБЪЕМНЫХ УЧАСТКАХ ДЕТАЛЕЙ ОДЕЖ- ДЫ ПРИ ПОМОЩИ ВАКУУМНОЙ УСТАНОВКИ .....	7
<b>2. Abdullayeva Mohira Madaminovna, Abdiyeva Mahbuba Qaronbayevna</b> MODEL VA MODELLASHTIRISH. MODEL TURLARI .....	10
<b>3. Abduraxmonov Adxam Shermamatovich</b> МАКТАБЛАРДА О‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARI .....	11
<b>4. Allaberganova Mahliyo Umirbek qizi</b> O‘QUVCHILARNI MEHNATGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH, MEHNAT TA‘LIMIGA TAYYORLASH METODIKASI.....	13
<b>5. Ashurova Kamila Asilbayevna</b> TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QITUVCHINING ROLI VA O‘RNI.....	15
<b>6. Ho‘jamuratova Iroda, Matyaqubova Sayyora Amatjonovna</b> INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION USLUBLAR VA INTERFAOL METODLAR .....	17
<b>7. Maxmudov Ilhom Ibragimovich</b> TA‘LIMDA AKT KOPETENSIYALARINING O‘RNI .....	19
<b>8. Saburova Kamola Ravshonbek qizi, Bekchanova Sevinch Xursandovna, Xodjaniyazova Ikbol Arslonbekovna</b> O‘QUVCHILARGA INTERNET — AXBOROTLARIDAN FOYDALANISHNI O‘RGATISH .....	21



## ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### ТЕХНОЛОГИЯ ПРИДАНИЯ ФОРМЫ В ОБЪЕМНЫХ УЧАСТКАХ ДЕТАЛЕЙ ОДЕЖДЫ ПРИ ПОМОЩИ ВАКУУМНОЙ УСТАНОВКИ

ст.пр. Бахриддинова Д.А.

Ташкентский институт  
текстильной и легкой промышленности

*Ушбу мақолада устки кийим ассортиментини ишлаб чиқаришда кийим пакетига намлаб иситиб-ишлов бериш жараёнларидаги газламаларнинг физик-механик ва гигиеник хусусиятларига таъсирини тадқиқотлари ва янги шакл ҳосил қилувчи усқунани ишлаш принципи келтирилган.*

*В данной статье приведены исследования влияния процессов влажно-тепловой обработки на физико-механические и гигиенические свойства пакета одежды, также принцип работы новой формообразующей установки для производства изделий верхнего ассортимента.*

This article presents studies of the effects of wet-heat treatment processes on the physicomachanical and hygienic properties of a clothing package, as well as the principle of operation of a new mold-forming unit for the production of products of the upper assortment.

Сегодня потребитель отдаёт предпочтение импортным производителям так как их продукция отвечает основным требованиям к качеству, внешнему виду, сроку эксплуатации, но эта продукция отличается и высокой ценой. В связи с этим разработка новых видов материалов, методов обработки их в процессе выполнения технологических операций, создания средств автоматизированного контроля и регулирования режимов обработки, механизация и автоматизация оборудования должны в первую очередь обеспечивать значительное повышение качества выпускаемых изделий. Особое значение в деле повышения качества швейных изделий отводится использованию формовочных свойств текстильных материалов в процессах влажно-тепловой обработки изделий, основное значение которой заключается в придании изделию соответствующей заданной формы, устойчивого его сохранения.

Устойчивость формы определяется устойчивостью тех деформаций, за счет которых получена форма в изделиях. Критерием оценки устойчивости формы принято считать релаксацию деформации того или иного вида после формования с течением времени, а также в результате различных воздействий на сформованный образец. Если ткань подвергнуть давлению и при этом пластифицировать волокна и нагреть их, то такая поверхность отличается больше по сравнению с поверхностью ткани, не подвергнувшейся прессованию и влажно-тепловой обработке. В результате этого их поперечный размер изменяется из круглого (рис.1,а) в овальное (рис.1,б), это можно сравнить по расстоянию  $S_0$  между двумя нитями оно уменьшается, по расстоянию между центральными точками между нитей  $L_0$  оно увеличивается, по их диаметру и по ширине самого сечения ткани, тем самым поверхностная плотность ткани увеличивается.




Рис. 3.5. Схема изменения сечения ткани до (а) и после (б) ВТО

Выявлено, что в процессе ВТО ткань подвергается давлению и естественно нити в ткани сплющатся, появятся плоские участки, тем самым негативно влияющие на физико-механические свойства ткани. Из этого следует, что после применения давления в паре с влагой, то есть после прессования показатель воздухопроницаемости в швейных изделиях снижается на 36,95 %, а устойчивость на разрывную нагрузку исследуемой ткани снизилась в среднем на 7,72%. Это естественно приводит к быстрому износу отдельных участков деталей одежды.

Из детального анализа вышеуказанного обзора существующих установок в формообразовании сделаны выводы что, процессы влажно тепловой обработки значительно понижают качество изготавливаемых швейных изделий. Для совершенствования формообразования в производстве верхних швейных изделий и устранения указанных недостатков, а также повышения качества технологических процессов была предложена установка для формования и влажно-тепловой обработки деталей одежды

Устройство, осуществляющее вакуумное формообразование состоит из верхней подушки 1 в которой пристроены несколько форсунок 2, с помощью которых равномерно распределяется полимерно-композиционный материал (ПКМ). ПКМ подаётся через специальные потрубки 3 из ёмкости 4, а также с помощью фена 5, параллельно подаётся тёплый воздух при температуре ( $t^{\circ}=125-130^{\circ}\text{C}$ ) на обрабатываемую ткань 6. Нижняя подушка 7 выполнена с перфорацией 8, откуда отсасывается воздух через воздушную камеру 9 при помощи вакуумной установки 10 через трубы 11.

На подушку 7 укладывается ткань 6, например спинка мужского пиджака, предназначенная для формования. С помощью специальной вакуумной установки 10, через потрубки 11, через нижнюю подушку 7 с перфорацией 8 и воздушной камеры 9 отсасывается воздух. При этом за счет вакуума ткань 6 повторяет форму нижней подушки 7 с перфорацией 8. Для фиксации этой формы опускается верхняя часть 1, в которой установлены форсунки 2 и специальный фен 5 не доходя до обрабатываемой ткани на 5-15 мм, что способствует отсутствию давления. Далее с форсунок 2 и фена 5 равномерно подаётся ПКМ и тёплый воздух. После чего подача останавливается. Вакуумная установка продолжает работать до полной фиксации требуемой формы (3-5 мин)




Рис. 1 Рисунок вакуумной установки для придания формы деталям одежды

а) общий вид; б) верхняя подушка; с) нижняя подушка;

1-верхняя подушка; 2- форсунки; 3- потрубки; 4- емкость для ПКМ; 5-фен; 6- обрабатываемая ткань; 7- нижняя подушка; 8- перфорация в нижней подушке; 9- воздушная камера; 10- вакуумная установка; 11-трубы для прохода воздуха.

**Выводы:** 1. Выявлено, что в процессе влажно тепловой обработки материалы подвергаются давлению и естественно нити в ткани сплющиваются, появятся плоские участки, тем самым негативно влияющие на физико-механические свойства ткани. 2. На основе проведенных теоретико-экспериментальных исследований были выявлены факторы о негативном влиянии технологического процесса влажно-тепловой обработки при изготовлении швейных изделий. 3. Данное устройство для формирования объемных деталей одежды повышает устойчивость к эксплуатации в процессе носки, а также обеспечивает сохранение физико-механических свойств отформированных деталей одежды.

#### Литература:

1. Д.А. Бахриддинова, С.Ш. Ташпулатов, Э.Ш. Алимбаев, Д.А. Исмаилова «Изменение геометрических параметров текстильных материалов при ВТО деталей одежды» // Проблемы текстиля № 1, 2011.- С. 63.

2. Бахриддинова Д.А., Ташпулатов С.Ш., Джураев А.Д., Кадыров Т.Ж. и др. FAP 00918 Патент на полезную модель 21.05.2014 «Устройство для формирования объемных деталей одежды».



## MODEL VA MODELLASHTIRISH. MODEL TURLARI

**Abdullayeva Mohira Madaminovna**

Xiva tumanidagi 28-ixtisoslashtirilgan

Davlat umumta'lim maktabi  
informatika fani o'qituvchisi.

**Abdiyeva Mahbuba Qaronbayevna**

Xiva tumanidagi 13-son umumiy  
o'rta ta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada modellashtirish tushunchasiga ta'rif berilib uning qaysi sohalarda qo'llanilishi va uning turlari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Model, modellashtirish, fizik model, matematik model, biologik model, fizik-kimyoviy model, iqtisodiy model.

Model (lat. modulus – o'lchov, me'yor) - biror ob'ekt yoki ob'ektlar tizimining obrazi yoki namunasi. Masalan, yerning modeli - globus, osmon va undagi yulduzlar modeli - planetariy ekrani, pasportdagi suratni shu pasport egasining modeli deyish mumkin.

Insoniyatni farovon hayot shartsharoitlarini yaratish, tabiiy ofatlarni oldindan aniqlash muammolari qadimdan qiziqtirib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat tashqi dunyoning turli hodisalarini o'rganishi tabiiy holdir. Aniq fan sohasi mutaxassislari u yoki bu jarayonning faqat ularni qiziqtirgan xossalari gina o'rganadi. Masalan, geologlar yerning rivojlanish tarixini, ya'ni qachon, qaerda va qanday hayvonlar yashaganligi, o'simliklar o'sganligi, iqlim qanday o'zgarganligini o'rganadi. Bu ularga foydali qazilma konlarini topishlarida yordam beradi. Lekin ular yerda kishilik jamiyatining rivojlanish tarixini o'rganishmaydi bu bilan tarixchilar shug'ullanadi.

**Modellashtirish** - bilish ob'ektlari (fizik hodisa va jarayonlar) ni ularning modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o'rganishdir. Modellashtirish uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab ob'ektlarni o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Mavhum ob'ekt, olisda joylashgan ob'ektlar, juda kichik hajmdagi ob'ektlarni o'rganishda modellashtirishning ahamiyati katta. Modellashtirish uslubidan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod fanlarida ob'ektning faqat ma'lum xususiyat va munosabatlarini aniqlashda ham foydalaniladi.

1. Fizik model. Tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o'lchami, tezligi, ko'lami) jixatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo'ladi.

2. Matematik *modellar* tirik organizmlarning tuzilishi, o'zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo'lib, tajriba ma'lumotlariga ko'ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so'ngra tajriba yo'li bilan tekshirib ko'riladi.

3. Biologik model turli tirik ob'ektlar va ularning qismlari - molekula, hujayra, organizm va shu kabilarga xos biologik tuzilish, funksia va jarayonlarni modellashtirishda qo'llaniladi. Biologiyada, asosan, uch xil modeldan foydalaniladi.

4. Fizik-kimyoviy modellar biologik tuzilish, funksiya yoki jarayonlarni fizik yoki kimyoviy vositalar bilan qaytadan hosil qilishdir.

5. Iqtisodiy modellar taxminan XVIII asrdan qo'llanila boshlandi. **F.Kenening** "Iqtisodiy jadvallar"ida birinchi marta butun ijtimoiy takror ishlab chiqdrish jarayonining shakllanishini ko'rsatishga harakat qilingan. Iqtisodiy tizimlarning turli faoliyat yo'nalishlarini o'rganish uchun har xil modellardan foydalaniladi. Iqtisodiy taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlari xalq xo'jaligi modellari yordamida tekshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.fayllar.org sayti.
2. www.tami.uz sayti.



## МАКТАБЛАРДА О‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARI

**Abduraxmonov Adxam Shermamatovich**  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-son maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari va uni tashkil etish metodikasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, ta‘lim, maktab, kasb, kadr, mehnat, dars, kuzatish.

Kasb - bu ongli ravishda tanlangan faoliyat yo‘lidir. O‘quvchilarning tanlangan kasblari ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Chunki tanlangan kasb faqat ularning o‘zlarigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishi kerak.

Mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos kadrlar bilan ta‘minlash har bir davlat uchun muhim masala. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining qay darajada tashkil etilishiga bog‘liq. Kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozim.

Maktabda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda an‘anaviy amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o‘tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mashg‘ulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o‘quvchilarga kasb egallash yo‘llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazo tushunchalar berib beriladi.

Maktabda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish birgina mehnat ta‘limi o‘qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan o‘qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog‘lab o‘tishsa, maktab psixologi va rahbariyati o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o‘quvchilarga kasb tanlashlarida ko‘mak bergan bo‘lishadi.

Kasbga yo‘naltirish ishiga kompleks yondashish o‘quvchilarni har tomonlama o‘rganishni ham ko‘zda tutadi. Bu tadbir o‘quvchilar bilan ishlashning to‘g‘ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O‘rganishni metodlar bilan o‘tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak.

Kuzatish - o‘quvchilarni o‘rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko‘zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta‘limi darslari kuzatish o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Diagnostik suhbatlar o‘tkazish ham qo‘llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o‘tkazilishi mumkin.

O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste‘dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba‘zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O‘qituvchining boladagi iste‘dod nishonalarini aniqlashi, ularning qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishida ko‘maklashishi muhimdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarida ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi.

Kasb egallashgacha bo‘lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hozirlashga umumiy qism bo‘lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda o‘rta maxsus yoki oliy ma‘lumot olish jarayoni jadallashadi.

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash - butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va zavod



jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'naviy -psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smirning shaxsi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlarni boshlang'ich ishlab chiqarish tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallashga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Mehnat tarbiyasi jarayoni birmuncha ilk bosqich amalga oshirilgan taqdirda bunga erishiladi.

O'rta va yuqori bosqich ta'limida davomiylik shu narsada ifodalanadiki o'quvchilar muntazam prinsip asosida tuzilgan yagona dasturlar bo'yicha ishlaydilar. Bunday dasturlar asta-sekin murakkablashtirilib borishni, bilimlarni, ko'nikma va malakani, mehnatning muayyan usullarini egallashni ta'minlaydi.

Ta'lim va kasbga yo'naltirish bilan qo'shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko'p pedagogik samara beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008.

2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: 2011

3. Maktablarining texnologiya fani darsliklari.

4. Internet malumotlari.



## О‘QUVCHILARNI MEHNATGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH, MEHNAT TA‘LIMIGA TAYYORLASH METODIKASI

**Allaberganova Mahliyo Umirbek qizi**

Xorazm viloyati Xonqa tumani

33-son maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarni mehnatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mehnatga aqliy, ruhiy, amaliy tayyorlash masalalari, shuningdek texnologiya darslarini tashkillashtirish metodikasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat, texnologiya, qiziqish, maktab, jihoz, usul, ta‘lim, dars.

Maktab ta‘limining hozirgi bosqichida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘ziga kelayotgan yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir. O‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo‘l mehnatlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan texnologiya fani o‘quvchilarda mehnat, axloqiy estetik iqtisodiy ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan. Texnologiya fani orqali o‘quvchilar nafaqat kasbga tayyorlanadi, balki hayotiy ko‘nikmalar hosil qiladilar. O‘quvchilar mehnatga ushbu uchta usul orqali tayyorlanadi:

**Mehnatga aqliy tayyorlash** – o‘quv jarayonlarida jamoa bilan ishlash, o‘zaro do‘stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilarini va mehnat natijalarini hurmat qilishga o‘rgatishdan iborat.

**Mehnatga ruhiy tayyorlash** - mehnatga ruhiy tayyorlash murakkab jarayon. U uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, butun ta‘lim va tarbiyaga singib ketadi.

**Mehnatga amaliy tayyorlash** - bu o‘quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg‘onishiga yordam beradi.

Texnologiya fanini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarni qiyinchiliklarni yengishga, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida matonat va qat‘iyat bilan kirishishga, boshlagan ishini chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o‘rgatib boradi.

O‘qituvchi mehnat darslarida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlarning namunasini, asboblarni materialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarini ko‘rsatishi lozim. Shuning uchun mehnat ta‘limida eshitish, ko‘rish xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarda, bir darsdan, keyingi darsgacha yangidan yangi bilim va ko‘nikmalar shakllanib boradi. Mehnatga o‘rgatishda o‘quvchining imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish va qiziqish jarayonlarini o‘rganish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari bolaning xotirasini o‘stirish ham alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilardagi mehnatga bo‘lgan qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg‘ulotladida takomillashtirishga yordam berish juda muhim. Bunda o‘quvchilarning e‘tiboriga eng oddiy buyum o‘yinchoqlarni, o‘quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applikasiya ishlarini topshiriq sifatida berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari bolalarda mehnatga qiziqishni uyg‘otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘nikma malakalarni mustahkamlash uchun “Mohir qo‘llar” to‘garaklarida, kam uzaytirilgan guruhlarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ham yaxshi natija beradi.


Texnologiya fanining vazifalari haqida gapirilganda, o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas‘uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik, do‘stona yordam hislarini tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birga mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma‘naviy ta‘minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Mehnat o‘quvchilarning bilim olishiga intilishini qo‘zg‘atuvchi vositagina emas balki, uning manbai hamdir. Mehnat ta‘limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy o‘stirishda jismoniy va aqliy almashtirib turish muhim ahamiyatga ega. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o‘stirishga yordam bermasligini unutmashimiz kerak.

Dars vaqtlarida jixozlanish ham muhim hisoblanadi. Bu orqali qiziqishni oshirish va aniq tushunchalarni hosil qilish kabi natijalarga erishish mumkin. Agarda bolalar yomon jixozlangan va umuman jixozlanmagan sinfda, qo‘pol, og‘ir va nomunosib asboblarni bilan shug‘ullansalar ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Agarda bola bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi. O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashtirish, jamoatchilik kabi



fazilatlarni tarbiyalaydi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasiga tayyorlashda turli usullardan samarali foydalanilsa o'quvchilarda haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi. Quyidagi rasmda qo'l mehnatining asosiy usullari bilan tanishib o'tamiz.



*1-rasm. Qo'l mehnatining asosiy usullari*

Darslarni to'g'ri tashkil etishda har bir o'qituvchi kasbiy mahorati va tajribasidan kelib chiqib turli usullar va metodlarni qo'llashi mumkin. Bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko'nikmalarni egallash va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya fani darsliklari.
2. UzACADEMIA jurnali.
3. Internet saytlari.



## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QITUVCHINING ROLI VA O‘RNI

**Ashurova Kamila Asilbayevna**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya darslarida o‘qituvchilarning o‘rni va roli yoritilgan bo‘lib, unda interfaol usullar orqali o‘quvchilarni ushbu fanga qiziqtirish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z:** yangilik, fasilitator, menejer, trener, Skarabey, texnologiya, qiziqish...

Barchamizga ma’lumki, o‘qituvchi o‘quv jarayonida maslahatchi sifatida faoliyat qiladi. **Ya’ni:**

- O‘quvchilarga ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- Turli xil yo‘nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo‘llash kerakligi bo‘yicha maslahat beradi va faol qayta aloqani ta’minlaydi;
- Noan’anaviy usullar bilan o‘quvchilarning harakatlarini qo‘llaydi va mustahkamlaydi;
- O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;
- O‘quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

### **O‘qituvchi-yangilik kirituvchi**

- ❖ Yangiliklarni ayniqsa o‘zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi;
- ❖ Yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;
- ❖ Yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo‘llay oladi va kamchiliklarini to‘g‘rilyadi;
- ❖ O‘z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli.

### **O‘qituvchining rol (vazifalari):**

**Fasilitator-** inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yordam beruvchi”, “yengillashtiruvchi” degan ma’noni anglatadi. Ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o‘quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi

**Menejer-** o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o‘rganish natijasida ta’lim-tarbiya jaryoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

**Ekspert-**aniq mavzu, masala bo‘yicha hakamlik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

**Moderator-**ma’lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o‘zi aralashmagan holda bir yechimga erishishga yordam beradi.

**Ma’ruzachi-** mashg‘ulot uchun o‘quv materiallarini tayyorlaydi, o‘quvchilarni bahsga chorlaydi, o‘rganish jarayonini motivatsiyalaydi.

**Maslahatchi-** o‘quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o‘rinlarni aniqlashtirishda yordam ko‘rsatadi.

**Trener-**o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini tashkil etadi,ularning ma’lum malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### **Kasbiy kompetensiya modeli.**



### **“Skarabey” texnologiyasi.**

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin



ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- -boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
- -mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- -oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.
- «Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

- «Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin. Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat va jamoa bilan ishlash mahorati, faollik, xushmuomalalik, ishga ijodiy yondashish, imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;

- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

**Asosiy tushunchalari quyidagilar:**

- Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

- Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Oldimizda turgan asosiy vazifa esa har bir o'quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tarix faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat. Shuni unutmagan holda har bir darsni fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil

2. “Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018-yil.



## INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION USLUBLAR VA INTERFAOL METODLAR

**Ho’jamuratova Iroda**

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi  
43 son maktabning informatika fani o’qituvchisi  
Tel: 998941148714

**Matyaqubova Sayyora Amatjonovna**

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi  
43 son maktabning Informatika fani o’qituvchisi  
Tel: 9898937411582

**Annotatsiya:** Darslardagi interfaol faoliyat o’zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko’zda tutadi.

**Kalit so’zlar:** Interakt, interfaol metodlar, interfaol usul, “Axborotlashtirish to’g’risida”gi qonun, axborot-kommunikasiya texnologiyalar.

Informatika kompyuter texnikasini qo’llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to’plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug’ullanuvchi fandır. Mamlakatimizda Birinchi Prezidentimiz tomonidan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalari, jumladan, ta’lim jarayoniga keng tatbiq etishga katta e’tibor qaratilgan edi. Bu 2012 yil 21 martda qabul qilingan “Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari”ga oid qaror va “Axborotlashtirish to’g’risida”gi qonunda, belgilangan asosiy vazifalardan biridir. Zero, zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo’llash o’quvchilarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun mohiyatini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish, ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik, axborot texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko’zda tutilgan. Shu sababli, bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Informatika” fani o’qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

- o’quvchilarning mustaqil bilim olish, o’rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o’rni va ahamiyatini oshirish;

- mashg’ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o’tkazish;

- o’quvchilarning faolligini oshirish, o’zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan metod va shakllarni qo’llash;

- ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Hozirgi davrda o’sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi muhimdir. Ushbu masalaning hal etilishi ko’p jihatdan o’qitishning interfaol metodlarini qo’llashga bog’liq. Interfaol so’zi inglizcha “Interakt” so’ziga mos kelib, “Inter – o’zaro”, “akt – ish ko’rmoq, ishlamoq” degan ma’nolarni anglatadi. Interfaol o’qitish – muloqotli o’qitish bo’lib, jarayonning borishida o’qituvchi va o’quvchi orasida o’zaro ta’sir amalga oshiriladi. Interfaol o’qitishning mohiyati o’quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o’quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo’ladilar. Interfaol metodlardan foydalaniladigan o’quv jarayonida o’quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko’rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o’rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o’yinlar, ijodiy ishlar qo’llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi. Interfaol o’qitish tashkilotchilari uchun, sof o’quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

-guruhdagi o’quvchilarning o’zaro muloqotlar jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib etishi;

-boshqalar bilan o’zaro muloqotda bo’lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

-o’quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish. Interfaol usullar



bo'yicha o'qitish tashkilotish jarayonida o'qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o'quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo'lib, o'quvchilarni fikr yuritish, o'ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo'lishi lozim. Quyida topshiriq savollarini to'g'ri ifoda qilish uchun tavsiyalar keltiramiz:

1. Topshiriq savollarini aniq va tushunarli darajada qo'yish lozim.
2. Topshiriq mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak.
3. Muayyan predmetlardan umumiyga borishga harakat qiling. Bu holat o'quvchilarni o'ylashi va savolga javob berishda engillik tug'diradi.
4. Faqatgina “ha” yoki “yo'q”, “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlaning.
5. O'quvchilarga o'z intellektual qobiliyatlariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, informatika fanlarini o'qitish jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilar o'quv - biluv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi va informatika fanlarini o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi. Interfaol metodlarni o'quvchilarni guruhlariga bo'lib o'qitishda ham qo'llash orqali ularning o'quv- biluv faoliyatini yuksaltirish va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin ekan. Bu metodlarni informatika darslarida qo'llash uchun esa fanning o'qitish hususiyatlarini yaxshi bilish lozim. Ya'ni har qanday informatika o'qituvchisi o'z mutahassisligi bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lganidan so'ng, shu fanni o'qitish hususiyatlarini- kursni o'qitishning dolzarbligini, fanning o'qitilish sabablarini, o'qitish uslubiyotini va usullarini, o'qitish texnologiyasini, darslarda ma'ruza, seminar, amaliyot mashg'ulotlarini qanday tashkil etish kabi malakalarni yaxshi egallagan bo'lishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Mamarajabov Mirsalim. Interfaol ta'lim metodlari asosida informatika darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti.
2. Novosardova S.A., Gaynutdinova F.X., Otajonov U.A. Metodika prepodavaniya kursa “Informatika”: Uchebnoe posobie. T.: TGEU, 2003.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## ТА’ЛИМДА АКТ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИНГ О’РНИ

**Maxmudov Ilhom Ibragimovich**

Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi  
3- sonli umumiy o’rta ta’lim maktabning  
Informatika fani o’qituvchisi  
telefon:+ 998907265383

**Annotatsiya:** *Maqolada zamonaviy pedagogning faoliyatida AKT kompetensiyalarining roli haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so’zlar:** *axborot-kommunikatsiya vositalari, boshqaruv, dars, AKT-kompetentligi.*

Zamonaviy pedagog ta’lim masalalarini yechishda umumiy bo’lgan zamonaviy axborot - kommunikatsiya vositalariga tayangan holda tayanch sifatlarga ega bo’lishi lozim. Pedagog maxsus manbalar va texnologiyalarni, ya’ni u yoki bu o’quv predmeti mazmuniga qo’yiladigan talablarga mos holda ishlab chiqilgan obyektga yo’naltirilgan AKT-kompetentligini o’zlashtirishi va uni ta’lim jarayoniga tadbiiq qila olishi lozim.

Axborot madaniyati deyilganda axborot jamiyatida insonlarning axborot jarayonlarini tashkillashtirish, saqlash, yig’ish, yaratish, uzatish, qidirish, qayta ishlash, foydalanish va taqdim etish bo’yicha erishilgan samaradorlik darajasidan qoniqishlik tushuniladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarini pedagoglar faoliyatiga tadbiiq qilish muqarrar bo’lgan omil hisoblanadi. Pedagogning professionalligi psixologik-pedagogik, predmet- metodologik va AKT tashkil etuvchilarni o’z ichiga oladi.

«Pedagogning AKT-kompetentligi» pedagogik faoliyatda zamonaviy AKTni bir qator ta’lim masalalarini yechishda mustaqil qo’llash qobiliyati, tayyorgarligi va bu sohada malakasini oshirish yo’llari sifatida qaraladi. AKT-kompetentlikni egallagan holda pedagog AKTdan foydalanishga nafaqat intilishi, balki uni loyihalashga, axborot-ta’lim jarayonini modellashtirishga intilishi lozim.

«Kompetensiya» - bu sifatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan, ma’lum bir doiradagi jarayonga va predmetga nisbatan shaxsning o’zaro bog’langan sifatlari mosligi (malakasi, qobiliyati, bilimi, faoliyat usullari).

«Kompetentlik» - bu inson tomonidan uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatlarini olgan mos kompetensiyani egallaganligi.

«Kompetentli yondoshuv» - bu shunday yondoshuvki, asosiy e’tibor ta’lim natijasiga qaratiladi. Bunda natija sifatida olingan axborot yig’indisi emas, balki insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati tushuniladi.

Informatika va axborot texnologiyalari bo’yicha tayanch kompetentlikni shakllantirish quyidagilarni talab qiladi:

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va shaxsiy kompyuterning funktsionalligi haqidagi tasavvurlarning mavjudligi;

-Microsoft Office yordamida didaktik va ko’rgazmali materiallarni tayyorlashda uslubiy asoslaridan foydalana olish;

-pedagogik faoliyat jarayonida raqamli ta’lim va Internet manbalaridan foydalanish;

-axborot texnologiyalarini qo’llash jarayonida ijobiy dalillarni yaratish.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqadigan bo’lsak, pedagog kompyuterdan foydalanishni bilmasa, uni navbatdagi tanlovdan o’tkazish mumkin emas. Unga AKT-kompetentlik darajasini oshirish tavsiya qilinishi lozim, masalan:

- o’quv amaliyotida AKTni tadbiiq qilish bo’yicha turli seminarlarda ishtirok etish;

- online forumlarda, mutaxassislik tanlovlarida va kengash yig’ilishlarida ishtirok etish;

-Internet resurslari va raqamli ta’lim manbalari kolleksiyasidan foydalanishni ta’minlash;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tadbiiqi bo’yicha o’z loyihalarini ishlab chiqish va sinovdan o’tkazish;

-AKTdan faol foydalaniladigan o’quv bilimlari bankini shakllantirish.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogik faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi, masalan: -turli hujjatlarni yuritish (hisobotlar, dars konspektlari va h.k.);

-kompyuter yordamida turli didaktik materiallar tayyorlash mumkin;

-pedagog oldida interaktiv doskalar, mul’timediali proyektorlar, elektron jurnallar va



boshqalardan foydalanish imkoniyati ochiladi;

-pedagog talabani bilingini baholash uchun nazorat dasturlari yoki testlarni o'zi yaratishi mumkin.

Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda ham pedagog oldida katta imkoniyatlar ochiladi: turli-tuman axborotlarni qidirish; virtual sayohatlar; konferensiyalar; masofaviy ta'lim; masofaviy olimpiadalar; on-line testlash.

Kompetentli fan o'qituvchisi informatika va axborot texnologiyalari sohasida Internet manbalaridan foydalangan holda qo'shimcha axborotlarni qidirishni va saralab olishni, turli kompyuterli vositalarni qo'llashni bilishi; o'z mutaxassislik darajasini orttirish maqsadida turli on-line konferensiyalarda ishtirok etishi; kompyuter testlarini yaratishi; ta'lim va tarbiya maqsadida turli multimediali ishlanmalarni qo'llashi; elektron ko'rinishda o'quv qo'llanmalar tayyorlashi, hamda turli elektron vositalar va kompyuter dasturlari yordamida o'quv jarayonini boshqarishi lozim.

O'qituvchining AKT-kompetentligi, uning mutaxassislik kompetentligi qismi sifatida pedagogik faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladigan mutaxassislik muammolarini yechish qobiliyatini aniqlaydi. Kompetentli fan o'qituvchisi esa talim jarayonida axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalana olishi lozim. Kompyuter - bu faqat vosita va undan foydalanish pedagogni yoki darslikni almashtirmasligi aksincha, darsda qo'yilgan maqsad va masalalarga erishishga ko'maklashishi lozim. Boshqacha aytadigan bo'lsak, pedagogik faoliyatning tavsifini o'zgartirishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, o'qitishning bosh metodik muammosi: «materialni qanday yaxshi bayon qilish lozim»dan «uni qanday yaxshi ko'rsatish lozim» ko'rinishiga o'tiladi

#### **Adabiyotlar:**

1. Бондаренко Е.А. Технические средства обучения в современной школе. - М.: «ЮН-ВЕС»: 2014.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // —Info. Kom Uzll jur. № 3, 2016.



## О‘QUVCHILARGA INTERNET — AXBOROTLARIDAN FOYDALANISHNI O‘RGATISH

**Saburova Kamola Ravshonbek qizi**

Xorazm viloyati Xiva shahar

9 - son maktabning informatika fani o'qituvchisi

**Bekchanova Sevinch Xursandovna**

Xorazm viloyati Xiva shahar

9 - son maktabning informatika va matematika fani o'qituvchisi

**Xodjaniyazova Ikbol Arslonbekovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

15-son maktabning informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan bir davrda internet tarmoqlaridan samarali foydalanish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** axborot, internet, multimedia, tarmoq, virtual, I.A.Karimov, globallashuv, talab, malumot.

Bugun dunyoning har bir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, yangilik xususida yetarli axborot olishimiz uchun atigi bir necha soniya kifoya. Monitor qarshisida sichqonchasimon moslamani boshqarib, istalgan mavzuda istalgan axborotni olish mumkin. Internet bir necha o'n yil ichida global tarmoqqa aylanib, nainki axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahonda globallashuv jarayonining tezlashishida ham muhim omil bo'ldi.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rindir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda.

Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.

Internet – insoniyat tafakkuri mahsuli. Internet axborot olish, almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir. Uning multimedia (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insoniyatni virtual olamga ohangrabodek tortmoqda. Lekin masalaning ikkinchi, g'oyat e'tibortalab jihati ham bor. Ba'zi mamlakatlarda virtual olamga g'arq bo'lish oqibatida o'zining yoxud o'zgalarning joniga qasd qilish odatiy holga aylanayotgani ham sir emas. Qator davlatlarda real hayotni virtual hayotga almashtirgan, ruhiy nosog'lom bemorlarni davolashga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etilayotganini ham hech kim inkor etolmaydi.

Bugungi axborot asrida hohlagan ma'lumotni internet tarmoqlaridan izlab topish imkoni mavjud bo'lgan asrda yashamoqdamiz. Ho'sh, biz internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning qaysi biri haqiqat va qaysi biri esa yolg'on ma'lumot ekanligini ajrata olyapmizmi? Bunda bizga qo'yiladigan yagona talab ham aynan, shu emasmi? Shu o'rinda ta'kidlab o'tish o'rinliki, bugungi kunda faktlarga qaraganda yer yuzida 7,5 milliard kishi internet foydalanuvchilari bo'lib, O'zbekistonning 36 million aholisidan 12 milliondan ortig'i internet foydalanuvchilari hisoblanadi. Internet tarmog'idagi saytlar faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirda 12 milliondan ortiq foydalanuvchilar mavjud ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayni vaqtda, internetning qaysi saytlariga foydalanuvchilar ko'plab murojaat qilayotganini aniqlash va bu borada ish olib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirda inson hayotiga jiddiy salbiy ta'sir qiluvchi saytlar, jumladan 10 mingdan ortiq o'z-o'ldirishga undovchi saytlar, 5 mingdan ortiq erotik saytlarni faoliyat olib borayotgani ushbu masalani naqadar dolzarb masalaga aylanayotganining yaqqol isbotidir. 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yurtimizda hozirgi kunda 10,815 millionga yaqin aholi internet tarmog'idan foydalanmoqda. Google kompaniyasining tahliliga ko'ra, O'zbekistonda "Odnoklassniki.ru" saytidan 200 mingdan ortiq, "Facebook" 100mingga yaqin, "Moy mir" saytidan esa 40 mingdan ortiq odamlar foydalanayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ushbu sohaga e'tibor berishni talab etmoqda.



Yuqorida keltirilgan raqamlarning o'zi ko'rsatib turibdiki, yoshlarning internet tizimida qullik va tobelik kuchayib bormoqda.

Bugungi jadallashib borayotgan globallashuv jarayonida ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlarni turli xil yod g'oyalar va axborot hurujlari ta'sirdan asrash eng muhim vazifalardan biriga aylanib bomoqda.

Bunda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan bir jihat mavjudki, hozirda axborot hurujlari avj olayotgan bir zamonda yashayotgan ekanmiz yoshlarni ongiga ta'sir etadigan turli xil yod g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirib borishimiz lozim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “bugungi kunda yadroviy poligonlardan ko'ra, mafkuraviy poligonlar xavflidir”. Yoshlar ongini egallash maqsadida olib borilayotgan hujumlarning oldini olish uchun hozirgi kunda keng jamoatchilik birdek mas'ulyatni his etib harakat qilishi lozim.

Darhaqiqat, hozirda internet tarmog'idan har kim o'z maqsadiga ko'ra, hoh yaxshi bo'lsin, hoh yomon, istalgan ma'lumotni topish imkoni mavjud. Axborot asrida yashamoqda ekanmiz. Bunday vaziyatda esa yoshlarimizni turli yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun ularni e'tiqodini baquvvat va eng muhimi o'zimizning milliy g'oyamiz asosida tarbiyalashimiz lozim. Zero, o'z fikriga ega bo'lmagan yoshlar aynan, tarqatilayotgan ma'lumotlarga fikr bildirsa olmaydi va mushohada eta olmaydi. Natijada shunday yoshlar ba'zi guruhlar yoki harakatlarning ishtirokchisiga aylanib qoladi.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://religions.uz/>
2. <http://uza.uz/uz/society/internetdan-foydalanish-madaniyati-17.11.2009-10298>
3. I. A. Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent – 2008
4. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 16-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000